

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida  
“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi bo‘yicha  
2024-yilning 1-yarim yillik yakuni yuzasidan**  
**TAHLILYI MA’LUMOT**

**Davlat dasturining barcha yo‘nalishlari** bo‘yicha ham tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Respublika davlat dasturi. Farmonning 2-ilovasi 13-band.**

“Navoiy KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab qolish” investitsiya loyihasini amalga oshirish (**48-maqсад**, Respublika davlat dasturi 13-band) vazifasi belgilandi.

**Amalga oshirilmoqda:**

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida, 14 dona og‘ir yuk kutarish qobiliyati 90 tonna bo‘lgan avtosamosval, 3 dona elektr ekskavator va 2 dona zanjirli buldozer xarid qilish uchun shartnomalar tuzildi.

Hozirga qadar 3 dona kon elektr ekskavatorlarini yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha 16,9 mln. dollar to‘lov amalga oshirilgan. Ayni kunda 1 dona ekskavator Xitoy davlatidan temir yo‘l transporti orqali yetkazilishi kutilmoqda, 2 dona ekskavator ishlab chiqarish jarayonida.

Shuningdek, 14 dona yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallari yetkazib berish shartnomasi bo‘yicha 21,8 mln.doll. to‘lov amalga oshirilgan. Shundan, 2 dona yuk ko‘tarish imkoniyati 90 tonna bo‘lgan kon avtosamosvallari ishlab chiqarilgan va Belgianing Antverpen portidan Estoniya davlatiga, qolaversa, 12 dona texnika AQShdan Belgiya davlatiga jo‘natildi.

Loyiha dorasida hisobot davri uchun 2 dona qiymati 2,2 mln dollar bo‘lgan zanjirli buldozerlar yetkazib berildi.

Joriy ylning yarim yilligida ushbu band bo‘yicha 15,3 mln AQSh dollari miqdoridagi kapital quyilmalar o‘zlashtirildi.

Dastur ijrosini ta’minalash maqsadida, Respublika aholisining ichimlik suv ta’moti darajasini oshirish (**61-maqсад**, Respublika davlat dasturi 94-band) vazifasi belgilandi.

Shu davrga qadar 26 ta suv tozalash uskunasi o‘rnataladigan hudud aniqlandi. Namuna sifatida NMZda 1 dona uskuna tayyorlandi. Hozirda uskunalarni o‘rnatish bo‘yicha Xorazm viloyatidagi “Ecocompany” MChJ bilan kelishuv olib borilmoqda. Texnik vazifalar tasdiqlangan. Bu ishlarga NKMK homiyligi hisobidan 4.4 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilmoqda. Barcha obyektlarda quduqlar burg‘ulash ishlari yakunlandi, uskunalarni o‘rnatish uchun maydonlar tayyorlandi, y`ni beton qo‘yildi. Shuningdek, texnik topshiriqlar tayyorlandi va shartnoma rasmiylashtirilayapti.